

IQTISODIYOTNI YUKSALISHIDA MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASH

Mullajonov Qobiljon Murod o'g'li 202 MMT gutuh
University of science and technologies talabasi

Hozirgi globallashuv davrida bilimli va mas'uliyatli raqobatbardosh yuqori malakali kadr bo'lib yetishish hozirgi kunda jamiyatda o'z o'rnini topa olish lozim. Buning uchun uzluksiz ta'lim tizimi faoliyatini zamon talablariga moslashtirish zarurligi masalasida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev quyidagilarni ta'kidlaydilar: "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" [1].

Demak, hozirgi raqamli iqtisodiyoti sharoitlarida dunyoda bir qancha tarmoqlar hamda sohalarda keskin islohotlar amalga oshirilayotganligi, an'anaviy ta'lim tizimining imkoniyati chegaralanganligi, aholi qatlamlari turli sabablarga ko'ra oliy ta'lim xizmatlaridan o'z vaqtida to'g'ri foydalana olmayotganliklari, davr talablari, egallangan (egallanayotgan) yo'nalish (mutaxassislik), kasb, lavozim va darajalar dolzarbligining o'sishi (pasayishi), ularga muvofiq keluvchi bilim, mahorat va malakalarga bo'lgan talabning ortishi (pasayishi) oliy va yuqori malakali kadrlar, rahbar va soha mutaxassislarining butun hayotlari davomida muntazam ravishda malaka oshirishlari va qayta o'qishlariga zarurat ortib bormoqda [2].

S. G'ulomov va B. Begalov "Mamlakatlarning milliy iqtisodiyoti globallashib, axborotlashgan iqtisodiyot, boshqacha qilib aytganda, bilimlar iqtisodiyoti shakliga aylanmoqda. Bilimlar iqtisodiyotining asosini ta'lim tashkil qiladi. Hozirgi kunda iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuch bo'lib sog'lom raqobat hisoblanmoqda, u o'z o'rnida bilimlar raqobatiga aylanmoqda. Milliy iqtisodiyotda axborot va bilimlarning tutgan o'rni tobora yuksalmoqda va ular strategik resursga aylandi. ... O'zbekistonning eng katta boyligi bo'lmish intellektual potentsiali doimo o'sib bormoqda" [3] deb ta'kidlashgan.

T. Shodievning fikricha, "Intellektual bilimlar iqtisodiy o'sishning asosiy

omillaridan biri deb tan olinishi resurslar tanqisligi masalasini qayta ko‘rib chiqish va YaIMni kengaytirish cheklanganligini tan olmaslikni taqozo etadi. Bilimlar yangi innovatsiyalar va ishlab chiqarish samaradorligi manbai, texnologik rivojlanish xalqaro raqobatbardoshlikni ta‘minlash, inson va jismoniy kapital manbai hisoblanadi.

Darhaqiqat, joriy globallashuv jarayonlari mamlakat iqtisodiyotining bilimlarga asoslangan iqtisodiyotga aylanishi natijasida yuz bermoqda, bilimlar va texnologiyalar global o‘zgarishlarning “yuragi” va “aqli” vazifasini bajarmoqda” [4].

N.O. Kayumovaning fikricha “bilimlar uzatilsa, tarqatilsa va foydalanilsa, ular ko‘payadi va aksincha, agar bilimlar ishlatilmasa, ular kamayadi va yo‘qoladi (buziladi). Bu bilan ular qanchalik ko‘p ishlatilsa, shunchalik o‘zining qiymatini kamaytirib, eskiradigan asosiy fondlardan farq qiladi” [5].

Demak, bilimlar iqtisodiyotida ishlab chiqarish mehnatga emas, bilimlarga asoslanadi. Zero, bilimlarning uzluksiz ravishda yaratilishi, ishlatilishi, foydalanilishi, qayta ishlanishi, sinovdan o‘tkazilishi, yangilanishi, tarqatilishi va uzatilishi amalga oshirilsa, ular kamaymaydi, yo‘qolmaydi, buzilmaydi, bir turdan ikkinchi turga o‘zgaradi, xolos. Ular qanday mazmun, shakl va hajmda ko‘proq qo‘llanilsa, shu darajada o‘z qadriyatini oshiradi.

Mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish uchun jalb qilingan bilimlar muntazam ravishda yangilanib borsa, ishlab chiqarish jarayonlarida mahsulot va xizmatlar qiymatini oshiradi.

Shunga muvofiq kapitalning ham tabiati o‘zgarib bormoqda, ya‘ni u avvaliga jismoniy (moddiy) kapital bo‘lib, keyinroq esa u tovar kapitali, moliyaviy kapital, inson kapitali, hozirgi davrda esa intellektual kapitalga aylandi.

Inson kapitali OTMlarida o‘qitish bilan teng ravishda yuqori malakali kadr (bakalavr, magistr)larning mehnat bozoridagi axloqiy, ijodiy, intellektual, ilmiy va tadbirkorlik qobiliyatlarini, ya‘ni ularning raqobatbardoshligini aniqlab beruvchi omil.

OTMlarida yuqori malakali bakalavrlar va magistrilar tayyorlash va

samaradorligini baholash, oshirish, oliy ta'lim sifatini boshqaruv jarayonlari mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Demak, bilimlarni boshqarish bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili, shuningdek, korxonaning inson kapitali taraqqiyotining shakli sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. Vaholanki, inson omili yurt ravnaqi, jamiyatimiz taraqqiyoti va yangilanishining eng asosiy omilidir [2].

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2016 yil 7 dekabr. – Toshkent, 2016. [Elektron resurs]. Manba: <http://press-service.uz/uz/news/news1/>.

2. Ochilov A.O. “Yuqori malakali kadrlar tayorlashda bilimlar va umr davomida ta'lim konsepsiyasini boshqarish” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2017 yil. 1-11 b.

3. G'ulomov S., Begalov B. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim sifatini yuksaltirish yo'llari // Iqtisodiyot va talim. – 2010. – 2. – B. 72-75.

4. Shodiev T. Iqtisodiy rivojlanishning sifat vektorlari. Metodologicheskie voprosy razrabotki strategiy dolgosrochnogo razvitiya // Materialy V Forumu ekonomistov. – Tashkent, 2013. – 21-26-betlar.

5. Каюмова Н.О. Превращение знания в общественный товар и вопросы регулирования интеллектуальной собственности // Сборник научных трудов: Реализация антикризисной программы – основа дальнейшего развития национальной экономики и повышения его конкурентоспособности. – Москва, 2010. – С.324-326.